

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Bank haqida

Aksiyadorlik tijorat «Aloqabank» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 1994 yil 12 oktabrda O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi korxonalari hamda kichik va o'rta biznes subyektlarini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil qilingan.

AT «Aloqabank» universal-tijorat bank sifatida o'z faoliyatini quyidagi litsenziyalar asosida amalga oshiradi:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2017 yil 21 oktyabrdagi 48-sonli bank amaliyotlarini amalga oshirish litsenziyasi (1995 yil 22 martdagi 48-sonli litsenziyaga almashtirilgan);
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 2014 yil 4 avgustdagi 59-sonli xorijiy valyutada amaliyotlarni amalga oshirish haqidagi Bosh litsenziyasi (1996 yil 21 avgust 38-sonli litsenziyasiga almashtirilgan);

Hozirgi kunda bank:

- O'zbekiston Respublikasi banklar Assotsiatsiyasi a'zosi;
- O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasi qatnashchisi;
- Fuqarolarning banklardagi "Omonatlarini kafolatlash jamg'armasi" a'zosi;
- "Toshkent" Respublika fond birjasi qatnashchisi;
- O'zbekiston umumdavlat to'lov tizimining a'zosi;
- SWIFT xalqaro to'lov tizimi a'zosii;
- VISA xalqaro to'lov tizimi a'zosi;
- O'zbekiston linzing beruvchilar Assotsiatsiyasi a'zosi;
- sindikatli kreditlash tashabbus markazi hisoblanadi.

Bank WESTERN UNION, UNISTREAM, CASPIAN MONEY TRANSFER, ЗОЛОТАЯ КОРОНА, ЛИДЕР, CONTACT, MONEY GRAM, ANELIK kabi xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari bilan uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini o'rnatib kelmoqda.

Vakillik munosabatlari:

- AJ Alfa-Bank
- AG Commerzbank (Germaniya);
- YAJ Asia-Invest Bank (Rossiya);
- KB Kookmin Bank (Koreya Respublikasi)
- AJ TengriBank (loro hisobraqam, Qozog'iston Respublikasi) ;
- OAJ Dos-Kredobank (loro hisobraqam, Qirg'iziston Respublikasi).

Bank auditori – PricewaterhouseCoopers (2008-2010 yy, 2012-2014 yy.)

Bank aksiyadorlari sifatida quyidagi bir qator nufuzli kompaniyalar, tashkilotlar va qo'shma korxonalar o'rin olgan:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- "O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va Taraqqiyot Jamg'armasi";
- "O'zbektelekom" aksiyadorlik kompaniyasi;
- Elektromagnit moslashuv markazi;
- Axborot-kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi;

- Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti;
- “Alskom” sug’urta kompaniyasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi;
- Radioaloqa, radioeshittirishlar va televideniye markazi;
- "DD GENERAL INSURANCE" ma'suliyati cheklangan jamiyat;
- “O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik kompaniyasi;
- "MEHNAT" ma'suliyati cheklangan jamiyat;
- “Matbuot tarqatuvchi” aksiyadorlik kompaniyasi.

Xalqaro reyting:

2018 yil, B1/B2/NP

«Moody's Investors Service» xalqaro reyting agentligi tomonidan AT “Aloqabank”ga quyidagi xalqaro reyting baholari berildi:

- Barcha reytinglar bo‘yicha prognoz – «BARQAROR»;
- Milliy valyutadagi depozitlari bo‘yicha – B1/NP;
- Xorijiy valyutadagi depozitlari bo‘yicha – B2/NP;
- Kontragent riskini baholash bo‘yicha – B1(cr)/NP(cr)

Milliy reyting:

2017 yil, uzA+ (Juda yuqori)

«Axbor-Reyting» banklararo reyting kompaniyasi AT «Aloqabank»ga milliy shkala bo‘yicha kreditga layoqatlilik «uzA+» (Juda yuqori) reytingini berdi.

[Bank tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslarga ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati |* .pdf| 146 Kb|](#)